

**ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RIYATIDA INSON RUHIY
KECHINMALARI TAHLILI**

Olimova Shahina Botirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada serqirra ijodkor Aleksandr Faynbergning inson ruhiyatining badiiy tasvirini o'zida mujassamlashtirgan „Savol“ she'ri badiiy-g'oyaviy jihatdan o'rganiladi. She'rda shoir inson qalbidagi hislar, ruhiy kechinmalar, javobi topilishi qiyin bo'lgan savollar va iztiroblari mahorat bilan yoritiladi. Shoirning she'r davomida qo'llagan badiiy-tasviriy vositalari va obrazlari orqali umumiy ma'noga ta'sirchan ohang qo'sha olgan. Maqoda davomida shoirning mahorati hamda she'r badiiy tahlili ko'rib chiqiladi.

Abstract. This article studies the artistic and ideological aspects of the poem "Question" by the versatile artist Alexander Feinberg, which embodies the artistic depiction of the human psyche. In the poem, the poet skillfully illuminates the feelings, spiritual experiences, questions and sufferings of the human soul. Through the artistic and visual means and images used by the poet throughout the poem, he was able to add a touching tone to the general meaning. The article examines the poet's skill and artistic analysis of the poem.

Аннотация. В данной статье исследуются художественно-идеологические аспекты стихотворения «Вопрос» разностороннего художника Александра Файнберга, воплощающего художественное изображение человеческой психики. В стихотворении поэт искусно освещает чувства, духовные переживания, вопросы и страдания человеческой души. Используя художественные и визуальные средства и образы, поэт смог придать стихотворению трогательный оттенок. В статье рассматривается мастерство поэта и проводится художественный анализ стихотворения.

Kalit so'zlar. *Ruhiy kechinma, she'riyat talqini, inson qalbi, obraz, badiiy tasvir, falsafiy fikr.*

Keywords: *Spiritual experience, poetic interpretation, human soul, image, artistic image, philosophical thought.*

Ключевые слова: *духовный опыт, поэтическая интерпретация, человеческая душа, образ, художественный образ, философская мысль.*

Kirish. Adabiyotda inson ruhiyati, uning his-tuyg'ularini she'riy tarzda ifodalash ijodkorlar orasida keng tarqalgan uslub hisoblanadi. She'r nafaqat inson ichki-kechinmalarini ifodalash vositasi, balki uning orzu-istaklari, hayotiy tajribalarini jamlagan majmuadir. Ijodkor lirik asari orqali o'quvchini fikrlashga hayotiy va ma'naviy izlanishga undaydi. Shuningdek, Aleksandr Faynberg ham o'z she'rlarida inson ma'naviy olami, uning o'y-fikrlarini tahlil qiladi va izohlaydi. Ushbu maqola davomida Aleksandr Faynbergning purma'no she'rlaridan biri „Savol“ she'ri tahlil qilinib, badiiy xususiyatlari hamda ramziy-tasviriy vositalari, asosiy g'oyasi izohlanadi.

„Savol“ she'rining mazmuniy tahlili va asosiy g'oyasi. „Savol“ she'ri qisqa bo'lishiga qaramay, chuqur falsafiy ma'noga egaligi bilan ajralib turadi. Shoir o'quvchiga savol berish orqali she'rning asosiy mazmuni va mohiyatini ochib beradi. She'rning ilk bandlaridayoq shoir murojaati savol bilan boshlanadi:

Balki dard, ko'z yoshidan

She'rimizda malohat?

Balki ilon nishidan

Yurakdagi jarohat?

Ushbu baytda „dard“ va „ko'z yoshi“ obrazlari inson ruhiyatidagi iztirob va dardli kechinmalarini tasvirlaydi. Shoirning fikricha, she'rning paydo bo'lishida ba'zan insonning boshidan kechirgan og'ir hayotiy voqealari, qayg'u va hasratlari sabab bo'ladi. Ilk misralardagi „malomat“ so'zi ta'na ma'nosida emas, balki she'rdagi joziba va estetik qiymatni bildiradi. Ikkinchi baytda shoir bor mahoratini ishga soladi. She'rni birinchi marta o'qigan odamda nega ilon nishi yurakka botishi

mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu masalani shoir shunday tushuntiradi, ilon nishi og'riq, zahar va xavfni bildiradi. Shoir bu misra orqali inson qalbiga yetkazilgan og'riq va ruhiy zarbani ifodalaydi. „Yurakdagi jarohat“ inson hayoti davomida bosib o'tgan yo'lidagi og'riqlari, travmalari, dardlari va alamlarini bildiradi. Bu baytda shoir ijod ilhomi sifatida insonning hayoti davomida kechirgan og'riqli tajribalarini misol tarzda ko'rsatadi.

Keyingi baytda ham yuqoridagi misralarning mazmuniy davomi bo'lib, ehtimol dardlarning achchiqligi sababli she'r misoli olov singari insonlarning dardini ifoda etgandir deb shoir o'quvchiga savol beradi. Shoir inson hayotidagi yomon kunlarni izg'irin kunlarga qiyoslab, bu og'ir kunlarda dardlar shamol kabi inson yuragiga ozor berishi tasvirlanadi.

Qadahda may limmo-lim-

Avj olgandir kuy, g'azal?

Bir boshga bir o'lim -

Qo'rqitilmagay ajal.

Qadahdagi may quvonch, shodlik ramzi hisoblansa, quvonch bilan, albatta, dard, alam va o'lim birga yonma-yon yurishi tasvirlanadi. Misrada agarchi may ichish bilan mashg'ul bo'lsa-da, unda o'lim hayoli hech yodidan ko'tarilmasligi hamda unga tayyor bo'lib, ajaldan qo'rmasligi she'riy tarzda ifodalandi. She'ring so'nggi baytida bizning yulduzimiz quvuchli kunlarimiz ehtimol yulduz konidadir deb o'ylaydi shoir. Ammo buni hech kim taxmin qilolmasligi, inson hayoti davomida goh quvonchli, goh qayg'uli kunlarni boshidan kechirishi tabiiy ekanligi va og'ir kunlarda tushkunlikka tushmay, yorug' kunlar tomon olg'a qadam tashlash kerakligi shoir tomonidan she'r xulosasi sifatida beriladi.

Xulosa. Maqola davomida tahlil qilingan she'r badiiy-estetik ruhga va inson kechinmalarini ochib beruvchi tasviriy vositalarga boy. Aleksandr Faynbergning „Savol“ she'ri hajman oz bo'lsa-da, chuqur falsafiy qarashlarga ega. Shoir she'r vujudga kelishini bevosita inson hayoti davomida kechirgan og'ir kunlariga bog'laydi. She'r savol shaklida yozilganligi tufayli insonni chuqur mushohada qilishga chorlaydi. Shoir baytlarda aniq javob bermaydi, balki o'quvchini mustaqil

fikrlashga va xulosa qilishga undaydi. She'rda turli badiiy vositalardan mohirona foydalanilgan. Masalan, „ilon nishi“ metafora ishlatilganini ko'rsatsa, shoir „ko'z yoshi“, „dard“ ni obraz sifatida she'rda qo'llaydi. Aleksandr Faynberg she'rda lirik ruhni gavdalandira oladi, she'rni o'qigan har bir o'quvchi o'z hayotidagi iztirob va ichki kechinmalarini ko'rgandek bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Faynberg, A. She'riyat va tarjima. — Toshkent: Sharq, 2015.
- 2.Faynberg, A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.
- 3.Karimov, B. O'zbek she'riyatida falsafiy motivlar. — Toshkent, 2018.
- 4.Tursunov, M. Lirik asarlar tahlili. — Samarqand, 2020.
- 5.Qosimov, B. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2007.
- 6.Yo'ldoshev, Q. Badiiy tahlil asoslari. — Toshkent, 2016.
- 7.Ahmedov, S. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent, 2012.
- 8.Ziyouz kutubxonasi. Aleksandr Faynberg she'rlari to'plami. — www.ziyouz.com◆
- 9.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Aleksandr Faynberg haqida maqola. — Toshkent, 2002.